

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
TABIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.U.Mahmudov <i>Zicrona caerulea</i> (Heteroptera) turining Farg'ona vodiysidagi ekologik xususiyatlari va biologik nazoratdagi ahamiyati.....	119
D.R.Kapizova, A.N.Jumayeva, Sh.I.Temirova, I.I.Zokirov Entomofaglardagi morfologik moslanishlar haqida (koksidlir entomofaglari misolida).....	123
N.O.Odilov, M.V.Obidov Foydali mikroorganizmlarning o'simlik biomassasiga ta'sirini baholash.....	127
N.B.Fayziyeva, A.H.Vaxobov Loviya oddiy mozaikasi virusi (LoMV) ta'sirida transpiratsiya intensivligining fiziologik tahlili.....	137
Sh.X.Yusupova, G.M.Zokirova, K.H.G'aniyev, I.I.Zokirov No'xat shirasi (<i>Acyrtosiphon pisum</i>) mavsumiy populyatsiya dinamikasini gibril stokastik-deterministik modellashtirish.....	144
E.A.Botirov Noctuini tunlamlari (Lepidoptera, Noctuidae) xilma-xillik ko'rsatkichlarining ekotopik tahlili.....	150
S.S.Umarov Farg'ona vodiysida kulrang g'oz <i>Anser anser</i> (Linnaeus, 1758) (Aves: Anatidae) ning tarqalishi va qishlovchi populyatsiyalari holati.....	155
E.A.Botirov Farg'ona vodiysi Noctuini tunlamlarining (Lepidoptera, Noctuidae) rivojlanish sikli, fenologiyasi va ozuqa o'simliklari bilan trofik aloqalari.....	161

GEOGRAFIYA

O.I.Abdug'aniev, E.G'.Maxkamov, KH.Abdullaeva Farg'ona viloyatida agroturizmni rivojlantirishda tabiiy sharoit va rekreatsion infratuzilmaning ahamiyati.....	167
D.G'.Mo'minov Landshaft va undan foydalanish imkoniyatlarining hududiy jihatlari (Farg'ona viloyati misolida).....	176
M.R.Qoriyev, G.R.Toshmirzayeva Global iqlim ilishini tuproq qurg'oqchiligiga ta'siri (Shimoliy Farg'ona tuproqlari misolida).....	182
I.I.Muxitdinov Farg'ona viloyatining umumiy kriminogen vaziyati va uning hududiy farqlari.....	189
B.B.Umarov Andijon viloyati geoekologik holatini geografik axborot tizimlari yordamida baholash.....	194
I.Z.Akaboyev, Z.Y.Ayubova, D.B.Ro'zmatov Chust tumani aholisini balandlik mintaqalari bo'yicha joylashuvini o'rganish.....	198
E.A.Soliyev, M.A.Kosimov, I.Z.Akaboyev Global iqlim o'zgarishi sharoitida Farg'ona vodiysi iqlimidagi o'zgarishlar.....	205
B.X.Kamolov Ekoturistik hududlarning imkoniyatlarini GAT texnologiyalari asosida aniqlash va kartalashtirish (Namangan viloyati misolida).....	211
N.S.Pardaev Surxondaryo viloyati mehnat resurslari tarkibidagi o'zgarishlar.....	217
A.F.Raxmatov Ekologik zo'riqishni kamaytirish orqali qishloq xo'jaligida barqarorlikni taminlash.....	222
B.Y.Zikirov, H.Z.Tilovberdiyeva Sirdaryo viloyatida yashil maydonlarning hududiy jihatlari va tahlili.....	226
O'.K.Nargizaxon Diniy turizmni rivojlantirishda ziyoratgohlarning o'rni va ahamiyati.....	232
O.I.Abdug'aniyev, D.B.Kosimov Ekologik karkas – jamiyatning barqaror rivojlanish strategiyasining asosi sifatida.....	237
X.A.Abdvaluiev Aholi zichligini aniqlashda qo'llaniladigan an'anaviy usullar.....	249
G'.Z.Tovbayev Sirdaryo viloyati o'simlik qoplamining NDVI ko'rsatkichlar va uning gat tahlili.....	256



UO'K: 343.9(575.11)

FARG'ONA VILOYATINING UMUMIY KRIMINOGEN VAZIYATI VA UNING HUDUDIY FARQLARI**ОБЩАЯ КРИМИНОГЕННАЯ ОБСТАНОВКА ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ И ЕЕ РЕГИОНАЛЬНЫЕ РАЗЛИЧИЯ****THE GENERAL CRIMINOGENIC SITUATION OF THE FERGANA REGION AND ITS REGIONAL DIFFERENCES**

Muxitdinov Ilhomjon Ixtiyor o'g'li
Farg'ona davlat universiteti, tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada Farg'ona viloyati misolida jinoyatchilikning hududiy-geografik xususiyatlari va ularga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan. Hududiy yondashuv asosida jinoyatlar dinamikasi, tarkibi hamda tumanlar kesimidagi tafovutlar o'rganildi. Tadqiqot natijalari jinoyatchilik darajasi viloyat markazlari va aholisi zich hududlarda yuqoriroq ekanini, o'lis qishloq tumanlarida esa ancha pastligini ko'rsatadi. Jinoyatlarning shakllanishida ijtimoiy-demografik va iqtisodiy omillar (aholi zichligi, ishsizlik, migratsiya va boshqalar) muhim rol o'ynashi aniqlangan. Hududiy-geografik tahlil asosida jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha hududiy choralar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Аннотация

В статье анализируются территориально-географические особенности преступности и факторы, влияющие на нее, на примере Ферганской области. На основе территориального подхода изучены динамика, состав и различия преступности по районам. Результаты исследования показывают, что уровень преступности выше в областных центрах и густонаселенных районах, а в отдаленных сельских районах он значительно ниже. Установлено, что социально-демографические и экономические факторы (плотность населения, безработица, миграция и т.д.) играют важную роль в формировании преступности. На основе территориально-географического анализа разработаны региональные меры и рекомендации по борьбе с преступностью.

Abstract

This article analyzes the territorial-geographical characteristics of crime and the factors influencing them using the example of the Fergana region. Based on a territorial approach, the dynamics, composition, and differences in crime across districts were studied. The results of the study show that crime rates are higher in regional centers and densely populated areas, and much lower in remote rural districts. It was found that socio-demographic and economic factors (population density, unemployment, migration, etc.) play an important role in the formation of crimes. Based on territorial-geographical analysis, regional measures and recommendations for combating crime were developed.

Kalit so'zlar: jinoyatchilik geografiyasi, kriminogen omillar, hududiy tafovutlar, Farg'ona viloyati, jinoyat darajasi, ijtimoiy-demografik omillar, kartografik tahlil.

Ключевые слова: география преступности, криминогенные факторы, региональные различия, Ферганская область, уровень преступности, социально-демографические факторы, картографический анализ.

Key words: crime geography, criminogenic factors, regional differences, Fergana region, crime rate, socio-demographic factors, cartographic analysis.

KIRISH

Jinoyatchilik masalasi bugungi kunda jahon miqyosida eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Dunyo bo'yicha jinoyatlar dinamikasida ayrim ijobiy o'zgarishlar kuzatilsa-da, umumiy jinoiy vaziyat murakkabligicha qolmoqda. Shu bois jinoyatchilikni chuqurroq o'rganish, xususan uning hududiy jihatlarini tahlil qilish ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Jinoyatlarning muayyan hududlardagi namoyon bo'lishi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ilk kriminologik tadqiqotlar (A. Kettle va boshqalar) ham jinoyat darajasi savodsizlik, qashshoqlik kabi omillarga bog'liqligini ko'rsatgan[1].

Farg'ona viloyati O'zbekistonning sharqiy qismida joylashgan bo'lib, mamlakatdagi aholisi eng ko'p hududlardan biridir. Hudud maydoni atigi 6,76 ming km² bo'lsa-da, aholisi 4,1 million kishidan oshadi va viloyat aholi soni bo'yicha respublikada ikkinchi o'rinda turadi. Aholi zichligi juda yuqori har 1 km² ga 600 kishi to'g'ri keladi, bu mamlakat bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlardan biri. Farg'ona viloyati iqtisodiy salohiyatga ega hudud bo'lib, sanoat va qishloq xo'jaligi rivojlangan. Aholi ko'p va zich joylashgani urbanizatsiya darajasini oshirgan, bu esa hududda turli ijtimoiy muammolar, jumladan jinoyatchilik muammosini keltirib chiqarishga o'z ta'sirini o'tkazadi. Shu jihatdan, Farg'ona viloyatida jinoyatchilikni hududiy-geografik nuqtayi nazardan tadqiq etish dolzarbdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jinoyatchilik geografiyasi kriminologiya va ijtimoiy geografiya o'rtasida shakllangan yo'nalish bo'lib, jinoyat holatining hududiy tarqalishi, unga ta'sir etuvchi omillar va hududlar o'rtasidagi tafovutlarni o'rganadi. Jinoyatchilikni hududiy tadqiq etish tamoyillari Yevropada XIX asrdayoq boshlangan – fransuz olimi A. Kettle va boshqalar jinoyatlar statistik taqsimotini xaritalarda ko'rsatib, jinoyat darajasi ijtimoiy omillarga bog'liqligini isbotlagan. Keyinchalik E. Ferri (1901) jinoyat sabablarini shaxsiy (biologik), ijtimoiy va ekologik omillarga ajratib tahlil qilgan, zamonaviy tadqiqotlarda esa jinoyatchilikka ta'sir qiluvchi omillar turkumlari (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, demografik, ekologik va boshqalar) alohida o'rganilmoqda. Masalan, ijtimoiy omillarga aholi soni va tarkibi, ta'lim darajasi, urbanizatsiya kabi ko'rsatkichlar kiradi – aholisi zich va yirik shahar hududlarida nazorat mexanizmlari sustlashib, jinoyatlar ko'payishi mumkin. Xuddi shu kabi, iqtisodiy qiyinchiliklar (ishsizlik, kambag'allik) jinoyatga moyillikni oshirishi, qonuniy yo'l bilan daromad topish imkonini cheklanganida odamlar o'g'irlik, firibgarlik kabi jinoyatlarga qo'l urishi mumkinligi ilmiy adabiyotlarda qayd etiladi[2]. Demak, jinoyatchilikni geografik tadqiq etishda turli omillarning integratsion tahlili zarur.

Jahon amaliyotida jinoyatlarni GIS texnologiyalari yordamida xaritalash, "hot spot" (qizg'in nuqtalar) tahlili, profilaktik kartografiya kabi yondashuvlar keng qo'llaniladi. Hududiy jinoyatchilik xaritalari huquq-tartibot idoralarga jinoyatlar eng ko'p to'planadigan manzillarni aniqlash va ularga yo'naltirilgan choralarini belgilash imkonini beradi. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda jinoyatchilikni hududlar kesimida o'rganishga e'tibor kuchaydi. Jumladan, Komilova N.K. va Maxmudov B.X. (2020) Farg'ona viloyatida jinoyat turlari va hududiy tafovutlarini tahlil qilgan bo'lib, jinoyatlarning eng yuqori ulushi mulkiy jinoyatlar ekanini qayd etgan. A.Qayumov va boshqalarning tadqiqotlarida esa geokriminogen vaziyatga ta'sir etuvchi omillar tasnifi keltirilib, ularning hududiy namoyon bo'lish xususiyatlari yoritilgan.

Ushbu tadqiqotda jinoyatchilikni hududiy-geografik o'rganish uchun bir nechta uslub va usullardan foydalanildi. Avvalo, rasmiy statistik ma'lumotlar asosida geografik taqqoslash va statistik tahlil o'tkazildi. 2018–2024 yillar davomida Farg'ona viloyati va uning tumanlarida jinoyatlar soni va ko'rsatkichlarining o'zgarish tendensiyalari hisoblab chiqildi. Kartografik usul yordamida jinoyatchilik darajasining hududiy taqsimoti maxsus xaritalarda aks ettirildi. Shuningdek, tumanlar kesimida jinoyatlarga ta'sir etuvchi ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlar (aholi soni, zichligi, shahar aholisi ulushi, ishsizlik darajasi va h.k.) tahlil qilinib, rayonlashtirish usuli bilan hududlarning kriminogen jihatdan tiplari ajratildi. Mazkur integratsiyalashgan metodologiya jinoyatchilikni hududiy omillar bilan bog'liq holda har tomonlama o'rganish va ilmiy xulosalar chiqarishga xizmat qildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Jinoyatchilikning shakllanish omillari. Farg'ona viloyatida jinoyatchilik ko'rsatkichlariga ta'sir qiluvchi omillar majmuini aniqlash uchun avvalo ularning holati va kelib chiqish manbalarini ko'rib chiqish lozim. Umuman, jinoyatchilik sabablarini shartli ravishda ijtimoiy-demografik, iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, hududiy-ekologik kabi toifalarga ajratish mumkin. Viloyat misolida bu omillar quyidagicha namoyon bo'ladi:

- Demografik va ijtimoiy omillar: Aholi sonining ko'pligi va zichligi jinoyat darajasiga bevosita ta'sir qiladi. Aholisi juda zich yashaydigan shaharlarda odamlararo muloqot va to'qnashuvlar tez-tez sodir bo'lib, ijtimoiy nazorat susayishi natijasida jinoyat sodir etish ehtimoli ortadi. Farg'ona viloyatida respublika bo'yicha eng yuqori aholi zichligi qayd etilishi (har kv.km.ga 600 kishi) mazkur xavfni oshiruvchi omildir. Aholining yosh tarkibi ham ahamiyatga ega – yoshlar ulushi yuqori bo'lgan hududlarda (masalan, viloyat markazlarida) huquqbuzarliklar sodir etilish ko'proq kuzatiladi. Ta'lim darajasi va ijtimoiy muhit ham jinoyatchilikka ta'sir qilishi mumkin - ayrim chekka

GEOGRAFIYA

qishloqlarda yoshlarning bandlik va ta'lim bilan to'liq qamrab olinmagani turli noxush xatti-harakatlarga olib kelishi ehtimoli mavjud.

- Iqtisodiy omillar: Hududdagi iqtisodiy ahvol va aholi turmush darajasi jinoyatchilik darajasini belgilovchi muhim omillardandir. Ishsizlik va kambag'allik hukm surgan joylarda moliyaviy qiyinlangan shaxslar tezroq jinoyatga moyil bo'lishi mumkin. Farg'ona viloyatida iqtisodiy faollik darajasi yuqori bo'lsa-da, mehnat resurslarining ortiqchaligi tufayli mehnat migratsiyasi keng tarqalgan. Migratsiya oqimlari va vaqtinchalik ishsizlik jinoyatchilikka turtki bo'luvchi omil bo'lishi mumkin ayniqsa, ishsiz qolgan yoshlar va mehnat migrantlarining ba'zilarida noqonuniy harakatlarga berilish xavfi ortadi. Shuningdek, daromadlar tengsizligi, shaharlardagi nisbatan farovon turmush tarziga qarshi qishloqlardagi qashshoqroq hayot kechirish holatlari ijtimoiy norozilikni kuchaytirib, jinoyatga yo'l qo'yish ehtimolini oshirishi mumkin.

- Siyosiy-huquqiy omillar: Huquqni muhofaza qilish organlarining hududiy faoliyati, profilaktika ishlarining yo'lga qo'yilishi ham kriminogen vaziyatga ta'sir qiladi. Masalan, huquqiy tartibga rioya etilishini nazorat qilishning sustligi, mahalliy huquq-tartibot idoralardagi korrupsiya yoki faoliyat samarasizligi jinoyatchilikning o'sishiga sharoit yaratadi. Farg'ona viloyatida so'nggi yillarda huquq-tartibotni ta'minlash borasida qator islohotlar o'tkazilgan bo'lsa-da, ayrim tumanlarda profilaktika ishlari yetarli darajada emasligi kuzatilgan (masalan, 2021-yilda xotin-qizlar jinoyatchiligi profilaktikasini sust olib borgan hududlar qatorida viloyat markazlari qayd etilgan) [6]. Shu bois hududlarda qonun ustuvorligini ta'minlash darajasi jinoyat ko'rsatkichlariga bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi omillar bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda jinoyatchilikning hududiy jihatlarini shakllantiradi. Farg'ona viloyatida aholining zich va ko'p bo'lishi, shahar va qishloq o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar, mehnat migratsiyasi kabi omillar jinoyat sodir etilish ehtimolini oshiruvchi asosiy sabablar sifatida namoyon bo'lmoqda. Keyingi bo'limlarda jinoyatchilikning statistika ma'lumotlari asosidagi tendensiyalari va hududiy tafovutlari aynan mana shu omillar nuqtayi nazaridan tahlil etiladi.

Jinoyatchilik dinamikasi va tarkibi. So'nggi yillarda (2018–2024) Farg'ona viloyatida qayd etilgan jinoyatlar soni nihoyatda keskin o'zgarishlarga uchradi. 2018-yilda viloyatda 5,3 ming atrofida jinoyat qayd etilgan bo'lsa, 2019-yilda bu ko'rsatkich biroz pasayib 5,0 mingtani tashkil etdi. 2020-yilda jinoyatlar soni keskin oshib, 10 952 taga yetdi, ya'ni avvalgi yilga nisbatan 115% o'sish kuzatildi. Bu o'sish favqulodda hol bo'lib, ehtimol jinoyatlarni hisobga olish tizimidagi o'zgarishlar va pandemiya davridagi ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'lgan. 2021-yilda jinoyatchilik viloyatda eng yuqori nuqtaga chiqdi va u 20 mingtaga yaqinlashdi, 2020-yilga nisbatan qariyb ikki barobarga oshdi 80% o'sish. Natijada Farg'ona viloyatida jinoyatchilik darajasi 2021-yilda 100 ming aholiga hisoblaganda qariyb 500 taga yetdi, bu esa respublika o'rtacha ko'rsatkichidan ancha yuqori edi. 2022-yilga kelib esa jinoyatlar soni bir muncha kamaydi - 15 182 ta jinoyat qayd etilib, o'tgan yilga nisbatan 23,7% ga pasaydi. 2023-yil esa jinoyatlar soni oldingi yilga nisbatan 14,2% ga (2157 ta) kamaygan bu holat Respublika bo'yicha olib borilgan jinoyatchilikka qarshi kurashishda keng ko'lamlı ishlar samarasi deyish mumkin. Lekin 2024-yilga kelib jinoyatchilik darajasi yana biroz farq bilan ko'proq sodir etildi, ushbu yilda 14289 ta jinoyat qayd etilib oldingi yilga nisbatan 9,7% ga oshdi. Bu holat viloyatida aholi sonining ko'payishi hamda jahonda sodir bo'layotgan siyosiy jarayonlar natijasida yurtimizga qaytib kelayotgan mexnat migrantlari hisobiga, biroz ishsizlik darajasi ortishi va boshqa omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin[4,5].

Yuqoridagi grafikdan ko'rinib turibdiki, Farg'ona viloyatida jinoyatchilik qisqa davr ichida bir necha bor tebranishlarni hosil qildi. Xususan, 2018–2019-yillarda yiliga 5 ming atrofida sodir etilgan jinoyatlar soni 2020-yildan boshlab bir yo'la ikki barobardan ziyodga oshib ketgan. Bir yil ichida bunday keskin oshish sodir bo'lishi, yuqorida ta'kidlanganidek, turli omillarning uyg'un ta'siriga bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, 2019–2020-yillarda O'zbekistonda huquqbuzarliklarni qayd etish va ma'muriy jazolar tizimidagi islohotlar tufayli ilgari yashirin qolib ketgan ko'plab huquqbuzarliklar jinoyat sifatida ro'yxatga kirgan bo'lishi mumkin. Shu davrga to'g'ri kelgan COVID-19 pandemiyasi ham aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatib, jinoyatning o'sishiga xizmat qilgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. 2021-yilda jinoyatlar soni rekord darajaga yetgach, 2022-yilda sezilarli pasayish kuzatildi. Bu pasayishda, bir tomondan, huquqni muhofaza qilish organlarining o'z vaqtida moslashuvi va kuchaytirilgan profilaktik choralar samarasini berdi, boshqa tomondan, 2020–2021-yillardagi "portlash"dan so'ng ko'rsatkichlarning ma'lum barqarorlashuvi sodir bo'ldi.

Endi viloyatda jinoyatchilikning tarkibiy tuzilmasiga e'tibor qaratamiz. Rasmiy statistikada jinoyatlar huquqiy tasnifi bo'yicha bir necha toifalarga ajratiladi (shaxsga qarshi, mulkiy, iqtisodiy, jamoat tartibiga qarshi va h.k.). O'zbekiston bo'yicha 2023-yil yakunida jinoyatlar tuzilmasida eng katta ulush iqtisodiyot sohalariga, mulk va xo'jalik faoliyatiga qarshi jinoyatlarga to'g'ri kelgan (taxminan 43–45%), shaxsga qarshi zo'ravonlik jinoyatlari ulushi esa atigi 15% ni tashkil etgan. Farg'ona viloyatidagi holat ham umuman olganda respublika ko'rsatkichlariga yaqin bo'lib, jinoyatlar orasida mulkiy va iqtisodiy jinoyatlar ustunlik qiladi. Aniqlangan ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda viloyatda sodir etilgan jinoyatlarning taxminiy 60% ga yaqini mulkiy-iqtisodiy xarakterdagi jinoyatlardir. Bunga o'g'irlik, talonchilik, firibgarlik kabi mol-mulkka tajovuz qiluvchi qilmishlar kiradi. Jinoyatlarning 15% atrofida shaxsga qarshi zo'ravonlik jinoyatlari (qotillik, tan jarohati yetkazish, bosqinchilik va b.) tashkil etadi[4]. Taxminan 15% ulush giyohvandlik bilan bog'liq va boshqa turdagi jinoyatlarga to'g'ri keladi. Qolgan 10% ga yaqin qismi esa yoshlar va oilaga oid huquqbuzarliklar hamda turli boshqa kategoriyalar (masalan, ekologik, transport sohasidagi jinoyatlar va h.k.) hisobidan iborat.

Tahlil qilinayotgan davrda viloyat jinoyatchiligining o'sishi asosan mulkiy jinoyatlar ko'payishi hisobiga sodir bo'lganini ko'rish mumkin. Masalan, faqat o'g'irlik jinoyatlari misolida qaraganda, 2018-yilda viloyatda 7 850 ta o'g'irlik holati qayd etilgan bo'lsa, 2021-yilda ularning soni qariyb 20 mingga yetgan, 2022-yilda esa 15 ming atrofida qayd etilib, pasaygan [4]. Demak, jinoyatlarning tarkibiy tuzilmasida mulk va boylikka tajovuz qiluvchi jinoyatlar yetakchilik qilgani ma'lum bo'lmoqda. Zo'ravonlik jinoyatlari (qotillik, tan jarohati) va narkojinoyatlar salmog'i esa nisbatan barqaror bo'lib, umumiy tuzilmada kichik ulush egallagan. Ushbu holat shuni anglatadiki, viloyatda kriminogen vaziyatni yaxshilash uchun avvalo mulkiy jinoyatlar profilaktikasiga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Farg'ona viloyati jinoyatchiligining so'nggi yillardagi o'sishi va tarkibiy tuzilmasi ko'p jihatdan Respublika tendensiyalariga mos keladi, biroq hududning o'ziga xos demografik va geografik xususiyatlari bu ko'rsatkichlarga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Jinoyatlar asosan urbanizatsiyalashgan markazlarda to'plangan bo'lib, hududiy tafovutlar juda katta. Bu esa viloyat miqyosida kriminogen vaziyatni yaxshilash uchun turli hududlarda differensial yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot Farg'ona viloyatida jinoyatchilik holati va uning hududiy tafovutlarini chuqur o'rganish imkonini berdi. Asosiy ilmiy xulosalarga ko'ra, viloyatda jinoyatchilikning shakllanishida ijtimoiy-demografik va iqtisodiy omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega: aholi zich va yoshlari ko'p bo'lgan shaharlarda jinoyatlar ko'proq sodir etilmoqda, iqtisodiy muammolar (ishsizlik, kambag'allik) jinoyatlarga moyillikni oshirmoqda. Jinoyatlar soni 2020–2021-yillarda keskin oshib, viloyat O'zbekiston bo'yicha kriminogen vaziyat og'ir hududlardan biriga aylangan. Jinoyatchilik tarkibida mulkiy jinoyatlar ustunligi kuzatiladi o'g'irlik, talonchilik, firibgarlik kabi jinoyatlar umumiy jinoyatlarining yarmidan ko'pini tashkil etadi. Hududlar kesimida esa keskin differentsiatsiya mavjud: jinoyatlarning katta qismi viloyat markazlari (Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon) va sanoatlashgan tumanlarda to'plangan, chekka tumanlar nisbatan "xavfsiz" hisoblanadi.

Ushbu natijalar jinoyatchilikka qarshi kurashda hududiy yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Bir xil choralar barcha joyda teng samara bermasligi mumkin, chunki har bir hududning kriminogen muammolari o'ziga xosdir. Shahar va sanoat markazlari uchun ishsizlikni kamaytirish, yoshlarni ish bilan ta'minlash va bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, migratsiya jarayonlarini boshqarish hamda mahallalarda profilaktik ishlarni kuchaytirish kabi kompleks ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXARI

1. Вопросы профилактики правонарушений в особо крупном городе. По итогам анализа и обобщения практики-планирования борьбы с преступностью в одном из особо крупных городов РСФСР: Сб. статей.- М., 2011. С. 33-36
2. Бадов А.Д. География преступности в России. Диссертация. - Владикавказ, 2010, С. 55-59
3. O'zbekiston Milliy axborot agentligi (UzA). "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat qonunchiligida jinoyatlar qanday tasniflangan?" 2020-yil. (Huquqiy-ma'rifiy maqola).
4. Rost24 axborot portali. "Qaysi hududlar O'zbekistonning "jinoyat markazlari" hisoblanadi?" 17.05.2023 rost24.uz. (Statistika agentligi ma'lumotlari sharhi).

GEOGRAFIYA

5. UZ24.uz yangiliklar portali. "So'nggi 5 yil ichida O'zbekistonda jinoyatchilik 2,3 barobar oshdi." 2024-yil. (Statistika qo'mitasi hisobotiga sharh).
6. O'zbekiston Respublikasi Hukumati rasmiy sayti (old.gov.uz). "Farg'onada xotin-qizlar va yoshlar o'rtasidagi jinoyatlarga mutasaddilar befarq bo'lmoqda." 24.07.2021.
7. Komilova N.K., Maxmudov B.X. "Farg'ona viloyatida jinoyatchilik turlari va hududiy tafovutlari." – *Geografiya: tabi'at va jamiyat* ilmiy jurnali, 2020, №4, 38–43-betlar.
8. Maxmudov B.X. "Regional approach in studying the criminogene situation of Kokand city." – *International Conference on Developments in Education* (Toronto, 21.02.2023), konferentsiya tezisi.
9. Qayumov A. va boshq. "Geokriminogen vaziyat va unga ta'sir etuvchi omillar." (Ilmiy maqola materiallari).